



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 16-dekabr

664-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini
yuritish va ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalari bo‘yicha komissiyalar
faoliyatini tashkil etish tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi
832-son qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini yuritish
va ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish
tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi 832-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida
“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini yuritish
va ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etish
tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi 832-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini
yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo‘yicha
respublika komissiyasi tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo‘yicha
hududiy komissiyasining namunaviy tarkibi **3-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo‘yicha
respublika komissiyasi to‘g‘risidagi nizom **4-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar to'g'risidagi namunaviy nizom **5-ildovaga** muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari davlat reyestrini (keyingi o'rinlarda - Reyestr) shakllantirish va yuritish uchun mas'ul organ hisoblanishi;

Kadastr agentligi Reyestrni ishlab chiqish va axborot tizimini qo'llab-quvvatlashda buyurtmachi hisoblanishi;

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doyr hujjatlarni, shu jumladan, xaritalar va chegaralar chizig'i tavsifini tayyorlash, ma'muriy-hududiy birliklarning navbatchi xaritalarini va ma'muriy-hududiy birliklarning davlat reyestrini ishlab chiqish va yuritish ishlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti parametrlarida Kadastr agentligi uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida moliyalashtirilishi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

3. Viloyat kadastr agentligi (J.Usmonov) va tuman (shahar) hokimlari:

- davlat xizmatlarini ko'rsatishda hamda idoralararo elektron o'zaro hamkorlik qilishda Reyestrda foydalanishi shart;

- Reyestrda kiritiladigan axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari U.Uzakov va viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov hamda tuman (shahar) hokimliklari zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov